

MA'NAVIY EHTIYOJLAR SHAKLLANISHIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYALARINING O'RNI

Jabborov Jamshid Azimovich

Falsafa fanl. bo'y. falsafa doktori (PhD), dots.v.b

Norsubxonova Dilshoda Jamshid qizi

Talaba

Xalqaro innovatsion universitet (Qarshi, O'zbekiston)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14620473>

Jamiyat sohalaridagi yangiliklar, ixtirolar, yutuqlar butun insoniyatning mulkiga aylanmoqda. Bugungi kunda har qanday ahamiyatli, qiziq g'oyalarning, foydali va foydasiz axborotning, texnologiyalarning, mahsulotlarning dunyo bo'ylab tez tarqalishiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Zamonaviy jamiyatda texnologiyalar rivoji nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalari, uy-ro'zg'or buyumlari, tovarlar va axborotlar tarqalishiga, shun-ingdek, madaniy mahsulotlar iste'moliga ham ulkan ta'sir ko'rsatmoqdi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali virtual mulqotlar, har xil elektron o'yinlar va ommaviy madaniyatning boshqa standartlashgan, mazmunan sayoz, ba'zan odamlarni chalg'ituvchi, ma'naviyatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mahsulotlar yaratilib, insonlar tomonidan iste'mol qilinmoqda.

Globalashuv sharoitida IT-sohasidagi yangiliklardan xabarsiz qolish, ilm-fan yutuqlari va kashfiyotlardan foydalanmaslik insonni, muayyan jamiyat, hattoki, tabiiy resurslarga boy davlatlarni ham zamondan bir necha yillar orqada qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. Texnologiyalar tizimida IT-sohasi yetakchilik qilmoqda: davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ishlab chiqarish (zavod va fabrikalar), ijtimoiy institutlar faoliyati, ta'lim tizimi, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport va hokazolarni texnologiyalarsiz tasavvur qilish mushkul. Zamonaviy jamiyatda transport, aloqa va axborot tizimida, savdo, xizmat ko'rsatish hamda bank sohalarida, shuningdek qishloq xo'jaligida ham mulkchilikning barcha zamonaviy shakllarini qaror toptirish bevosita texnologiyalarga bog'liq bo'lib qoldi.

Insonning har qanday ehtiyojlarining qondirilishi va yuksalishi jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlar bilan hamohang tarzda davom etadi. Lekin, texnologiyalar rivojlanishi insoniyat taqdiri uchun ko'plab xavotirli holatlarni ham yuzaga keltirmoqda, texnokratik qarashlar ustunlik qilishiga, insoniy munosabatlar tanazzulga uchrashiga, begonalashish kuchayib, axloqiy me'yorlar darz ketishiga olib kelmoqda.

Mashhur olim A.Erkaev texnokratik qarashlar haqida quyidagi mulohazalarni bildirgan: umuman olganda jamiyat va insonga, ma'naviy hayotga biryoqlama yondashuvdir. Texnokratik qarashlar birinchi navbatda insonning ko'ngil dunyosini, insonning tuyg'ulari, kechinmalari, ehtiroslarini, ular bilan bog'liq orzu-havaslarini inkor qiladi, yoki ularga ikkinchi darajali hodisa, insonning zaifligi, deb qaraydi. Ustuvorlik aqlga, bilimga, aniq va real hisob-kitob asosida puxta ishlab chiqilgan rejaga (orzu-havasga emas) beriladi. Texnokratik qarashlar o'z baholarida maqsadga muvofiqlik tamoyilga tayanadi. Texnokratik qarashlarga muvofiq madaniyat mahsulotlari, adabiyot va san'at asarlari faqat odamlarning ma'lum axborotga nisbatan ehtiyojini qondiradi, ovutadi, dam oldiradi, bo'sh vaqtini to'ldiradi, ruhiy va jismoniy charchog'ini chiqarib organizmning funksiyalarini tiklaydi. Shu sababli ular kerakli va foydali. Lekin ular jamiyatning birorta jiddiy muammosini yechib berolmaydi. Shu sababdan ikkilamchi ahamiyatga ega. Texnokratik qarashlar adabiyot va san'atning inson

ruhiyati, kashfiyoti va yaratuvchanligini, nozik tuyg'ulari, qudratli ehtirolari ekanligini yaxshi tushunmaydi. Inson insoniy tuyg'ularsiz – uyat, hayo, vijdon amri, vijdon azobi, burch, adolat, go'zallik, mexr-oqibat, muhabbat, hamdardlik, hayrixohlik va shu kabi tuyg'ularsiz hayvondan farq qilmas edi [1].

Texnokratik qarashlar ustunlik qilib, an'anaviy qadriyatlar – oilaviy qadriyatlar, qarindoshlik, do'stlik, o'rtoqlik, aksariyat axloqiy, estetik qadriyatlar inkor qilingan joyda oila va nikoh instituti yemirilmoqda.

Postmodern jamiyat ziddiyatlaridan, balki, potensial tarzda eng havflisi milliy va umuminsoniy mumtoz qadriyatlar deformatsiyaga uchrayotgani qatorida sun'iy intellektning inson ongiga, ehtiyojlari qondirilishida qarama-qarshi tendensiyalarni keltirib chiqarishidir. Sun'iy intellekt bir tomondan, insonga murakkab texnik, kognitiv masalalarni yechishda yordam beradi. Ammo, ikkinchi tomondan, uni kompyuterning yoki murakkab smart-texnik qurilmaning bir bo'lagiga aylanib qolish havfini tug'diradi. Ushbu munosabat bilan E.Frommning o'tgan asr o'rtalaridayoq aytgan bir fikrini eslash lozim: "O'tmishda havf shunda ediki, inson qulga aylantirilar edi, kelajak havfi shundaki, odamlar robotga aylanishi mumkin" [2].

Sun'iy intellekt – bu globallashuv jarayonlari ta'sirida keng e'tibor qilinayotgan, tezkor hisoblash muhitida algoritmlar yaratish va qo'llash orqali insonning aql-idrok jarayonlarini texnologiyalarga ko'chirish, sodda qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarini odam kabi o'ylash va yechim topishga yo'naltirilgan jarayondir. Hozirgi sun'iy intellekt (SI) inson yaratgan dasturlarga to'la qaram, dasturdan chetga chiqa olmaydi.

Hozirda, odamlar va mashinalar faoliyati natijasida hosil bo'layotgan ma'lumotlar hajmi, odamlarni ushbu ma'lumotlarni o'zlashtirishi, talqin qilishi va murakkab qarorlarni qabul qilishi insonning aqliy darajasiga og'irlik qilmoqda. Sun'iy intellekt yordamida kompyuterlar va robot inson uchun murakkab muammolarni soniyalar ichida yechib berishga, turli ilmiy bashoratlarni qilishga xizmat qilmoqda. Sun'iy intellekt rivojlangan davlatlarning barcha sohalariga kirib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiy sohalarida to'g'ri yechim topishi, kelajakda turli iqtisodiy inqirozlarga duch kelmasligi, biznes sohasida kelajak bashoratlarini o'rganish, moliyaviy xizmatlarda firibgarlikni aniqlash, chakana savdoda mahsulotlarga ehtiyojni bashorat qilish, mijozlar bilan onlayn muloqat qilish yoki masofaviy qo'llab-quvvatlash xizmatlarini amalga oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Sun'iy intellektning foydali jihatlari bilan bir qatorda uning insoniyat uchun zararli tomonlari olimlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Insonning texnologiyalarga qaram bo'lishi, aqlli texnologiyalarning insoniyat ustidan hukmronlik qilishiga olib kelishi, shuningdek, ommaviy ishsizlik ko'rsatkichlari oshib ketishi eng katta muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Sun'iy intellektning madaniy ishlab chiqarish sohalariga salbiy ta'siri kuzatilishi mumkin. Insonning mehnat qilish ehtiyoji (moddiy va ma'naviy mahsulotlarni yaratish, turli xizmatlar ko'rsatish va boshqa sohalar) havf ostida qoladi (ishlab chiqarish tizimida robotlar asosiy o'rinni egallaydi).

IT-sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ba'zi milliarderlar ham sun'iy intellektning insoniyat uchun havfli tomonlarini sanab o'tishdi. Jumladan, SpaceX asoschisi Ilon Mask sun'iy intellektning butun boshli sivilizatsiyani barbod qilishiga ishonchi komil. Uning fikricha, "sun'iy intellekt insoniyat sivilizatsiyasining asosiy xavfidir. Sun'iy intellekt keltirib chiqaradigan ommaviy muammolarning asosi mehnat qilish ehtiyoji bilan bog'liq. Chunki,

robotlar barcha topshiriqni insondan ko'ra yaxshiroq va sifatliroq bajara oladi. Zamonaviy texnologiyalar ortidan quvish natijasida, gigant texnologik kompaniyalar sun'iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf-xatarni ko'rmay qolishlari, paydo bo'ladigan umuminsoniy muammolarning yechimi topilmasligi mumkin" [5].

Shuningdek, Microsoft rahbari Bill Geyts ham uning zarariga to'xtalib o'tadi: "Bir necha o'n yildan so'ng, robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, sun'iy intellekt shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni xavotirga sola boshlaydi"[5].

Yuqoridagi bandlarda IT-sohasi haqida fikr bildirdik, uning insonlarga ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qildik. Zamonaviy texnologiyalarni internetsiz tasavvur etish mumkin emas. Jamiyatning har bir sohasida internet kirib borgan: ta'lim tizimi, iqtisodiyot, siyosiy faoliyat, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va hokazo.

Insonlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirishda internet tarmog'idan foydalanish o'zining samarasini bermogda. Shu jihatlarini hisobga olib M.Quronboev global tarmoqning quyidagi ijobiy jihatlarini sanab o'tadi:

- eng ommaviy, tezkor ma'lumot olish manbai;
- real vaqt rejimida cheksiz norasmiy muloqot vositasi;
- ko'ngilochar o'yinlar (musiqa, video o'yinlar vab.);
- reklama va tijorat uchun qulay vosita;
- intellektual, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- masofaviy ta'lim imkonini beradi [3].

Fikrimizcha, internet tizimi jamiyat ma'naviy hayotiga keng ko'lamda ijobiy (odamlar dunyo go'zalligidan bahra olishi (virtual sayohatlar), kino yoki shoular tomosha qilishi, musiqalar tinglashi, muzeylardagi eksponatlarni, san'at asarlarini baholashi, dunyoning istalgan kutubxonasidagi kitoblaridan, arxiv hujjatlaridan foydalanishi, ta'lim olish, masofadan o'qish, turli konferensiyalarda qatnashish, yig'ilishlar o'tkazish, fikrlar va g'oyalar bilan o'rtoqlashish imkoniyatlarning vujudga kelishi) ta'sir o'tkazadi. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar orqali siz o'z yaqinlaringiz bilan suhbatlashish, ovozi xabar yoki rasm, video xabar orqali bir-biringizdan hol-ahvol so'rab turish (virtual aloqa orqali oradagi masofa "minimum darajada qisqaradi"), o'zingizga hamsuhbat, maslakdosh topishingiz, bo'sh vaqtlaringizda turli xil elektron o'yinlar bilan mashg'ul bo'lish imkoniyatingiz bor. Insoniyatni qiziqtirgan har qanday axborotlarni: iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy-ma'naviy mazmundagi ma'lumotlarni topish, undan foydalanish tezlashdi va osonlashdi. Yer yuzidagi barcha hukumat, jamoat va nodavlat tashkilotlarning faoliyati internet bilan bog'landi. Qisqacha qilib aytganda, internet – XXI asr odamlari uchun madaniy mahsulotlar yaratuvchi va ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi asosiy vositasiga aylandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy texnologiyalarning insonga salbiy ta'sirini minimallashtirishga erishish uchun ta'lim-tarbiya, birinchi galda ma'naviy tarbiya mazmunini, usul va vositalarini zamon talablarini hisobga olib, takomillashtirish zarur.

References:

1. Жабборов, Ж.А. (2021). Интерпретация проблемы духовных потребностей в научных исследованиях ученых нашей страны. Общество и инновации, 2(5/S), 484–491. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp484-491>

2. Жабборов, А. М., Жабборов, И. А., & Жабборов, Ж. А. (2015). ЭТНИЧЕСКИЕ СТЕРЕОТИПЫ И ПСИХОЛОГИЯ САМОБЫТНОСТИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (1), 80-83.
3. Жабборов, А. М., & Жабборов, Ж. А. (2016). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ ПРИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (3), 93-95.
4. Жабборов Ж.А. Маънавий эҳтиёжлар – жамият тараққиётининг мезони // «Трансформація суспільних наук: соціально-економічний, лінгвістичний, політичний та іт-виміри» II Міжнародна наукова конференція. 22.10.2021. Харків, UKR. 40-43 бет. <https://doi.org/10.36074/mcnd-22.10.2021>
5. Жабборов Ж.А. Ўзбекистонда таълим-тарбия тизимини объектив заруратга мослаштириш бўйича олиб борилаётган давлат сиёсати. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. (6), 2021 y. 19-28 b.
6. Жабборов Ж.А. Илм-фанда эҳтиёжлар таснифи. Збірник наукових праць ЛОГОС. 2021. <https://doi.org/10.36074/logos-29.10.2021.v1.34>
7. Жабборов Ж.А. Постмодерн жамият зиддиятларининг маънавий эҳтиёжлар юксалишига таъсири (фалсафий таҳлил). Традиційні та інноваційні підходи до наукових досліджень, 149.
8. Жабборов Ж.А. Мамлакатимиз олимларининг илмий тадқиқотларида маънавий эҳтиёжлар муаммосининг талқини // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 5 (2021) / ISSN 2181-1415. Impact Factor: SJIF 2021 = 5.395. Б. 484-491.
9. Jabborov J.A. Analysis of spiritual needs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary ..., 2021.
10. Jabborov J.A. Ma'naviy ehtiyojlar rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari. Innovative, educational, natural and social sciences, VOLUME 1 | ISSUE 3, ISSN 2181-1784. 2021. 30-35 b.
11. Жабборов Ж.А. Эҳтиёжлар тизимида - маънавий эҳтиёжлар. Актуальные вызовы современной науки. II Международная научная конференция. 2017. С 62-64.
12. Жабборов Ж.А. Ғарб олимларининг илмий тадқиқотларида эҳтиёжлар тизимининг таҳлили. Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги – ЎЗА илм-фан бўлими (электрон журнал). 2021. Б. 316-325.
13. Жабборов Ж.А. Маънавий эҳтиёжлар–жамият тараққиётининг мезони. Матеріали конференцій I Міжнародна наукова конференція «Трансформація суспільних наук: соціально-економічний, лінгвістичний, політичний». Україна. 2021.
14. Jabbarov J. A. Interpretation of needs in the spiritual heritage of our ancestors. Best journal of innovation in science, research and development. ISSN: 2835-3579. 2023. SJIF: 5.493
15. Джаббаров Д.А. (2023). ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОТРЕБНОСТЕЙ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ НАШИХ ПРЕДКОВ. Лучший журнал инноваций в науке, исследованиях и разработках, 633–636. Источник — <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1158>

16. Jabbarov J.A. Society in his Life Spiritual of Needs Held Place. merican Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 48–51.
17. Jabbarov J.A. INTERPRETATION OF NEEDS IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF OUR ANCESTORS. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 633–636.
18. Jabbarov, J. «INCREASING NEEDS IS AN IMPORTANT FACTOR OF SOCIETY'S DEVELOPMENT». ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE, т. 3, вып. 5, Zenodo, 5 февраль 2024 г., сс. 32–36, doi:10.5281/zenodo.10617432.